

## 30-dars

### Darsning mavzusi: His-hayajon gaplar (85 – 89-mashqlar)

**Darsning ta’limiy maqsadi:** o‘z fikrini aytish birligi sifatida gap haqidagi tasavvurlarini umumlashtirish; his-hayajon gaplar haqida bilimlarni aniqlash va matnni ohang yordamida gaplarga ajratishga, gap oxirida zarur tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yishga o‘rgatish; o‘qilgan matn mazmunini va o‘zgalar fikrini anglab, ifodalay olish, og‘zaki nutqda so‘z va gaplar ohangiga rioya qila olish; gapning turlarini farqlay olish, gapning ohangiga ko‘ra tinish belgilarini (nuqta, so‘roq, undov belgilari) ishlata olish, darak gap haqidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o‘quvchilarda tabiatni sevish, tabiatdagi o‘simlik va hayvonlarga nisbatan ijobiy munosabat hamda mehr hissini uyg‘otish; o‘zining xato-kamchiliklarini to‘g‘ri tushunish, mustaqil o‘qib-o‘rganish va bilimini muntazam oshirib borishga o‘rgatish; yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me’yorlariga, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qilgan holda gaplar tuzish, mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda, o‘zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo’llay olish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi dars

**Darsning metodi:** savol-javob, ko‘rgazmalilik, “O‘zing top!” va “Gap tuz!” ta’limiy o‘yini.

**Darsning jahozi:** mavzuga oid rasmlar, turli so‘zlar yozilgan tarqatmalar.

#### Darsning borishi

##### I.Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o‘quvchilarni darsga hozirlash.

##### II.O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

*Bolalar,siz do‘stlikni qadrlang!*

O‘tilgan mavzular savol-javob o‘tkaziladi.

Uyga berilgan 84-mashq tekshirib chiqiladi.O‘tilgan mavzuni takrorlash uchun o‘qituvchi “O‘zing top!” ta’limiy o‘yini o‘tkazadi. Buning uchun doskaga qoidalarni yozilgan ko‘rgazma ilinadi, qoidalarning asosiy joyi tushurilib qoldirilgan bo‘ladi. O‘quvchilar doskaga chiqib ketma-ket qoidalarni to‘ldiradilar.

*1. Biror narsa-voqeа haqida xabarni bildirgan gap ..... deyiladi.*

2. Kuchli his-hayajon, quvonch, ajablanish bilan aytilgan gap .... deyiladi.

3. Darak gap oxirida .....pasayadi.

4. Biror narsa haqida so'rash maqsadini bildirgan gap .... deyiladi.

5. So'roq gapning oxiriga ..... belgisi qo'yiladi.

6. Buyurish, maslahat, iltimos mazmunini bildirgan gaplar ..... deyiladi.

7. Darak gapning oxiriga ..... qo'yiladi.

8. Buyruq gapning oxiriga ..... qo'yiladi.

9. His-hayajonli gapning oxiriga ..... qo'yiladi.

10. So'rash mazmunini bildirgan gaplar ..... deyiladi.



### **III.Mustahkamlash**

Darslikda berilgan 85-mashq og'zaki bajariladi.

-Berilgan parcha qaysi hikoydan olingan?

-Parchada nechta gap bor?

- Gapning qanday turlaridan foydalanilgan?

- Undov belgisidan qachon foydalaniladi?

86-mashq og'zaki bajariladi. Berilgan matn o'tilgandan so'ng, quyidagi savollarga javob olinadi.

-Mushukning bu jihatiga siz ham e'tibor berganmisiz?

-Matndagi his-hayajon bilan aytilgan gaplarni toping.

-Gap oxirida so'roq va undov belgilari birga kelgan gaplarni topib, tinish belgilarini izohlang.

87-mashqni bajarishda guruhlar bilan ishlanib, "Gap tuz!" ta'limiylar o'yinidan foydalaniladi.

Birinchi qator – darak gaplarga misollar yozadilar.

Ikkinci qator – so'roq gaplarga misollar yozadilar.

Uchinchi qator – buyruq va his-hayajon gaplarga misollar yozadilar.

88-mashq og'zaki bajariladi. Nima uchun oxirgi gapda undov belgisi qo'yilganini tushuntiring, savoliga o'quvchilardan javob olinadi.

### **IV.Darsha yakun yasash va baholash**

Dars yakunida o'quvchilar bugungi darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

### **V. Uyga vazifa berish.**

89-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.